

ЎЗБЕКISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI
ЎZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI



“Himoya qilishga ruxsat beraman”

Ўzbek filologiyasi fakulteti dekani

_____dots. Musayev A.

5141100-Ўzbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi bo'yicha

bakalavr darajasini olish uchun

“Ўzbek shomon folklorining janrlar tarkibi”

mavzusida bajarilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Hamrayeva Gulmira.

Ilmiy rahbar: dots. Tursunqulov A.

Taqrizchi: o'qituvchi Jo'rayev M.

Ishni himoyaga tavsiya etaman dots. Ikromov I.

BMI o'zbek adabiyoti kafedrasi

yig'ilishining qarori bilan (Qaror №9 28.05.2011)

himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri dots. Ikromov I.I. _____

Jizzax-2011

Ўzbek shomon folklorining janrlar tarkibi

Reja:

KIRISH.....	3- 5
	betlar
I .Bob ЎZBEK ShOMON FOLKLORINING JANRLAR TARKIBI	6-29
	betlar
II.Bob. BEMORNI DAVOLASH BILAN BOG’LIQ	30-37
MAROSIM JANRLARI.	betlar
XULOSA.....	38-bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RЎYXATI.....	39-40
	betlar

Kirish

Ўzbek xalqi qadim zamonlardan buyon shomoniylk e'tiqodi bilan shug'ullanib keladi. Xalq orasida shomonlar qushnoch, parixon, baxshi, folbin, ilgir, ilgak kabi nomlar bilan yuritiladi. Ўzbek xalqining yaqin o'tmishida, ya'ni sobiq ittifoq tasarrufida bo'lgan paytlarida din bilan mashg'ul bo'lish qat'iy ta'qiqlangan edi. Mamlakatimizning siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritishi Ўzbekiston xalqining dunyoga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Mamlakatimizda diniy e'tiqod va vijdon erkinligi qonun bilan muhofaza qilinadigan bo'ldi. Ilgarilari yashirincha shomonlik kasbi bilan mashg'ul bo'lgan kishilar endilikda erkin faoliyat olib borishlariga imkon yaratildi. Ўzbekistonning turli hududlarida istiqomat qilayotgan shomonlarning magik aytimlari o'zbek folklorining noyob durdonalari shodasini tashkil etadi. Mazkur og'zaki yodgorliklarning XX asr boshlarida yozib olingan variantlari va hozirda jonli ijroda yashab kelayotgan janrlarini ilmiy tadqiq etish bugunning muhim masalalaridan sanaladi.

Mavzuning dolzarbligi: Mavzuning bu qadar kam o'rganilganligi va faqtgina XX asrdan boshlab yozib olinganligi uning bugungi kunda folklorshunoslik nuqtai nazaridan chuqur manografik ko'lamda o'rganish uning zaruriyatini belgilaydi. Shomon marosimlari folklorining asosiy janrlarini ikki asosiy tipga ajratish mumkin. Bular: a) *shomon marosimlari uchun mushtarak bo'lgan voqeyiy magik janrlar: shomon yo'qlovlari, shomon chorlovlari, shomon termalari*; b) *bevosita bemorni davolash jarayonida ijro etiladigan janrlar*. Biz yuqorida ko'rib o'tgan janrlar shomon marosimlari folklorining birinchi tipiga mansub janrlardir. Shomon marosimlari folklorining ikkinchi tipiga *gulafshon, badik, ko'ch-ko'ch, afsun, avrash, yoyish, bog'lash* singari bemorlarni darddan xalos etishda shomon tomonidan ijro etiladigan janrlar mansubdir.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan ham belgilanadiki Shomon marosimlari shu vaqtga qadar faqat etnografik nuqtai nazardan o'rganilgan va uning og'zaki ijodga xos bo'lgan aytimlari, termalari maxsus badiiy jihatdan tadqiq etilmagan. Biz o'z ishimizni Shomon marosimlarini emas, Shomon folklorini baddiyat nuqtai

nazaridan o'rganishga va og'zaki ijod talablariga qay darajada javob berishiga qarab ilmiy baholashga harakat qildik.

Mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyati: Shomon folkloriga oid manbalarga birinchi marta ilmiy baho berilishi va ilmiy istimolga olib kirilishi uning ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Chindan ham xalqimizning nihoyatda boy bo'lgan og'zaki merosining katta bir qismini tashkil qilgan Shomon folklori mustaqillikka qadar diniy marosimlarning bir qismi deb qaralib folklorshunoslar etiboridan chetda qolgan edi. Mavzuning bunday ilmiy jihatdan o'rganilishi uning amaliy ahamiyatini ham belgilaydi.

Ushbu mavzu o'zbek xalq og'zaki ijodi bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislarni va badiiy ijod havaskorlarini qiziqtirishi tabiiy bir hol. Shu sababli ushbu mavzu Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligiga qarashli barcha ta'lim muassasalaridagi filolgiya yo'nalishlarda, o'zbek adabiyoti darsliklariga maxsus qism sifatida kiritish mumkin. Shuningdek maxsus o'quv qo'llanma hamda uslubiy qo'llanmalar yaratish uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Mavzuning maqsad va vazifalari uning ilmiy dolzarbligi bilan bog'lanib ketadi. Shu sababli biz o'z oldimizga quyidagi maqsad va vazifalarni quydik:

- a). o'zbek folklorining janriy boyligini va rang-barangligini isbotlash;
- b). folklor asarlarini marosim jihatdan baddiyat bilan qo'shilgan holda nomoyon bo'lishini tadqiq qilish;
- v) shomon folklorining turlarini hamda tiplarini o'rganish va ilmiy istimolga olib kirish;
- g). shomon folkloriga ilk marotaba folklorshunos nuqtai nazardan baho berish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-nazariy asosi va metodi. Biz o'z ishimizda folklorshunoslik fanida sōngi yillarda keng qo'llanilib kelinayotgan qiyosiy-tipalogik metoddan foydalandik. O'zimiz uchun ilmiy nazariy asos deb o'zbek folklorshunoslari Xodi Zarif, Mansur Afzalov, Muzayana Alaviya, Tōra Mirzayev, Boxodir Sarmisoqov, Mamatqul Jōrayevlarning ilmiy ishlarini, manografiyalarini oldik.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi. Ish “Kirnish”, “Xulosa”, “Foydalangan adabiyotlardan” tashqari uch bobdan iborat.

I bob. “**Ўzbek** shomon folklorining janrlar tarkibi” deb nomlanib bu bobda shomon folkloriga xos бўлган marosimlarda aytiladigan aytimlar, kōch-kōchlar, og’zaki ijodga xos бўлган baddiyat jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek bu bobda shomon yōqlovlari, shomon chorlovldari, shomon afsonalari, shomon qasidalari, shomon terminlari haqida fikr yuritib ōziga xos xususiyatlari ochib beriladi

II bob. “Bemorni davolash bilan bog’liq marosim janrlari” deb nomlanib avrashlar, bog’lashlar, kōch-kōchlar bilan bog’liq sōzning magik qudratini aks ettiruvchi boshqa xalq tabobatiga oid qismlar ham folklorshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Ayniqsa avrashlarda qōllanadigan sōzlarning magik qudrati ōziga xos baddiyatga egadir.

“Xulosa” da yuqorida keltirilgan boblarda aytilgan asosiy ilmiy qarashlar, kōtarilgan masalalar yuzasidan fikr yuritiladi.

I. bob. ŌZBEK SHOMON FOLKLORINING JANRLAR TARKIBI

Ōzbek shomon marosimlari folklorining dastlabki epik janri bu shomon afsonalaridir. Chunki, shomonlar dastlab shomonlik dardiga chalinadilar, keyin qōl olib shomonlik kasbi bilan mashgʻul bōladilar. Shomon marosimlarigacha bōlgan jarayonni poetik izohlashga qaratilganligini inobatga olib, biz shomon marosimlari folklorining dastlabki janri sifatida shomon afsonalari xususida tōxtalib ōtishni joiz topdik.

Shomon afsonalari. Afsonalar sirasiga kiruvchi ogʻzaki hikoyalar orasida shomonlik eʼtiqodi bilan bogʻliq voqyelik tafsilotini bayon etuvchi asarlar ham mavjudki, ularning bosh gʻoyasi shomon aytuvchisining muayyan shomonlik kasbi (qushnoch, folbin, parixon, joduchilik) ni qōlga kiritishi bilan bogʻliq maʼlumotni izohlashdan iborat. Bunday nasriy aytimlar voqyelikni hayoliy uydirma asosida tasvirlashi jihatidan afsona janriga mansub. Ammo, ularni mifologik afsona yoki tarixiy afsonalar sirasiga kiritib bōlmaydi. Shomon afsonalarining mifologik afsonalardan farqi shomon kasbini egallashi, shomon eʼtiqodi bilan bogʻliq voqyelikning yetakchiligi, bosh qahramon – afsona ijrochisining ōzi ekanligi bilan ajralib turadi.

Shomon afsonalari syujet tizimida mifologik obrazlar bilan parallel ravishda tarixiy shaxs - aytuvchi shomon obrazi ham ishtirok etadi. U syujet tizimidagi barcha voqyealar rivojida bosh qahramon sifatida asosiy ōrinni egallaydi. 1995 yilda Navoiy viloyati Navbahor tumanida istiqomat qiluvchi 23 yoshdagi folbin - Shoiri Haqberdiyevadan¹ biz tomonimizdan yozib olingan shomon afsonasiga eʼtibor beraylik: “Ōshanda olti yoshda edim. Dadam dōkondan chelakcha olib keldilar. Chelakchani kōrishim bilan suvga borgim keldi. Suvga borishda buvim menga hamroh bōldilar. Buvim qōlidagi chelagini tōldirib, uy tomon keta boshladi. Men hovuzdan suv olish uchun engashdim - u lop etib suvga tushib ketdim. Shu payt qulogʻimga bir tōda qizlarning kulgani eshitildi. Kōzimni ochib qarasam, atrof qip- qizil, qizil –loyqa suvda qizil odamchalar suzib yuribdi. Kattakon qizil

¹ Ахборотчи ўз исмини ўзгартириб беришимизни илтимос қилди. Унинг айтишича, парилари ахборотчи ва парилар ўртасидаги мулоқотларни сир тутишини таъқиқлаган.

sandiqdan chiroyli taqinchoqlar qaynab chiqayapti. Ularni maza qilib tomosha qildim. Qizig'i shundaki, men suv ostida turib, quruqlikdagi hayotni ham bermalol kōrib turibman. Kattakon havuzning bir chetida jamalaklarim suv yuzida qalqib turibdi. Shu paytda buvim orqasiga qaradi-yu, hovuz tomon yugurdi va meni suvdan uzib oldi. Men ōzimni kulgidan tōxtata olmasdim – nimadir meni qitiqlayotgandek edi. Buvim tavba degancha meni oldiga solib, uyga olib ketdi.

Ōsha voqyeadan keyin har tuni uxlab yotsam, bosh tomonimda bir narsa “big’-big’” qiladigan bōldi. Kōzimni ochsam, xuddi soatga ōxshash junli narsa big’illagancha sakrab uchadi. Men qōrqib, boshimni kōrpaga ōragancha uxlab qolardim.

Oradan yillar ōtib, maktabni tugatish paytimiz bir kuni tushimda maktab hovlisidagi ariq bōyida dam olib ōtirgan edik. Qulog’imga “ketdik” degan ovoz eshitildi. Men beixtiyor shoshilib ōrnimdan turdim va maktabdan chiqib, uy tomon yurdim. Boshim og’irlashib, burnimga bir narsa tiqilar, oyog’im ostiga qarasam, shaftoli daraxtlari ustidan yurib ketayapman. Ozroq fursat ōtgach, parga ōxshash chiroyli yumshoq gullar ustiga yiqilib tushdim. Mazza qilib uxlay boshladim.

Tushimda chiroyli qizlar bilan suhbatlashdim. Ulardan biri menga: “Biz bilan qolasanmi? Yoki ...”, - dedi. Shu payt onamning: “Tur ōrningdan, buncha uyquchi bōlmasang”, - degan ovozi meni uyg’otdi. Men uyqudan turgim kelmay yotaverdim. Kōz ōngimda ōlib ketgan qarindotshlarim paydo bōldi. Bobom gapirmasdan meni kuzatayapdi. Boshqa qarindotshlarim qoshlariga imo bilan chaqirardilar. Men ōzimning uy ōrtasida yotganimni kōrdim. Atrofimda oq kiyimdagi doktorlar, onam, dadam va oilamizdagilar-hammasi dod – faryod solib yig’lab turibdi. Men hayron bōldim va: “Mana men”, - deb ularning oldiga bordim. Shu payt kimdir kōzini ochdi deb qichqirib yubordi. Onam yuz-kōzlarimdan ōpib, yig’lay boshladi.

Oradan ikki yilcha vaqt ōtgach, qandaydir sharpa meni izma-iz ta’qib qila boshladi. Bu haqida onamga aytib bergandim, onam: “Ōzingning xayolingda shunday bōlgan”, - deb tinchlantirdi. Shu-shu onamga bu haqda gapirmaydigan bōldim.

1992 yili yoz oylarida tomog'imga nimadir tiqilgan, jonim tomchilab yerga tōkilayapti. Suyaklarim yonib, zichlashib ketayapti. Yonayotgan yelimdek jonim yerga sachrab, uzilib tushaverdi. Onam meni kasalxonaga eltdi. Dōxtirlar kasalxonada olib qolishdi. Negadir, u yerda yuragim siqilardi. Menga yurakni kuchlantiruvchi dori yuborar edilar. Kasalxonada qiziq hodisa rōy bera boshladi. Men har kuni yarim tunda havoda muallaq tura boshladim.

Keyin meni eskichaga qaratdilar va men sog'aydim. 1993 yilning yanvar oyida darslarimni o'tib bōlgach, maktab hovlisidan chiqishim bilan ortimdan uzun-kalta oq soyalar ergashdi. Men o'z yōnalishimni o'zgartirib, uyga emas, balki o'sha atrofdagi xōjalik idorasiga yugurdim. Idorada turmush o'rtog'imga uchrashib, meni uyga kuzatib qōyishlarini iltimos qildim. Biz uyga yetib kelgach, o'zimizga ajratilgan xonaga kirdim. Xonada, negadir, gilamlar o'rniga kattakon hovuz, atrofi daraxtzor, daraxtlarning taglarida qirqqa yaqin qiz, har birining qōlida bittadan par. Ular men tamonga yugurib kelib, tomog'imga par qaday boshladilar. Men bōg'ilib tipirchiladim. Shundan keyin qarindotshlar maslahatlashib, baxshi folbinlarga borishdi. Folda boshimdan o'tgan barcha voqyealar chiqdi va men yoshligimda suvga chōkkan paytimdan suv parilariga yoqib qolgan, har doim ular meni himoya qilib yurishlari ma'lum bōldi.

Shundan keyin men qōl olib, folbinlik qila boshladim va shundan buyon suv parilari bilan doimiy muloqotda bōlib turibman”

Mazkur afsona aytuvchining qay tariqa shomonlik kasbini egallaganligini izohlashga qaratilgan. Afsonada bosh qahramon ishtirokida sodir bōlayotgan voqyealarning g'ayritabiyligi, afsona syujetining shakllanishi uchun asosiy poetik vazifa bajarayotgan bosh qahramonning suvga chōkishi, geografik makonda g'ayri odatiy hodisalarning yuz berishi (masalan, uyida gilam o'rniga kattakon hovuz paydo bōlib qolishi) hamda qahramonning tush kōrish motivlari shomon afsonalarining yetakchi xossalariidan biridir. Afsonada qahramonning o'z tanini yuqoridan kuzatishi motivi jon haqidagi qadimiy mifologik tasavvurlar bilan bog'liq hodisadir. Zero, shomonlik e'tiqodining o'zi marhumlar ruhi bilan muloqot qilish va ulardan foydalanishdan iborat. Qadimgi xorazmliklar e'tiqodiga kōra,

inson o'lgandan keyin uning ruhi tanani tark etib osmonga chiqib ketadi va ma'lum muddat o'tgach, o'simliklar, narsalarga keyinchalik yana odamga ko'chadi.² Bu kabi mifologik kodning afsona poetikasida qayd etilishi tasvirlanayotgan badiiy to'qimaning bevosita shomonlik tasavvurlarini izohlashga qaratilganligi bilan bog'liqdir.

Shomon afsonalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shunda ko'rinadiki, bunday og'zaki nasriy hikoyalarda bosh qahramon aytuvchining o'zi bo'lib, tasvirlangan voqyelik muayyan tarixiy zamonda, real makonda sodir etilib, ilohiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Navoiy viloyati Karmana tumani Jaloyir qishlog'ida istiqomat qilgan (olloh rahmat qilsin) folbin Shamsiya bibi Ashurovadan 1995 yilda biz tomonimizdan yozib olingan afsonada aytuvchining shomonlik kasbini egallashi qo'yidagicha izohlanadi: "Bobom Bahovuddinning darvoza eshoni bo'lganlar. Bibim mulla bo'lgan. Bobom bolaligimda olamdan otdilar. Bibim men on yetti yoshga to'lganimda qazo qildilar. Bibimdan menga meros qolgan kitoblarini olganimdan keyin jinni bo'lib qoldim. Oshanda menga basavlat, qora kiyim kiygan Turkman pari oshiq bo'lib qoldi. Turkman pari menga doira berib qo'yning qumolog'ini tutib, "Mana bu mayizni yeg'in", deb yalinardi. Yigirma bir yoshimda qol oldim, sog'aydim. Bari bir hali hanuz kechalari eshik ochilib ikki barzangi oq, ko'k kiyimli erkaklar kirib kelishadi. Haligi erkaklarning biqinida yaltiroq narsalari yashirinib turadi. Ular azobat – Yunus bilan kasofat - Yunus³ bo'lib, odamlarga azob – uqubat va kasofat keltirishadi. Ular kelib ketgach, azob ko'rgan kishilar folga kelishadilar".

Yuqorida keltirilgan afsonada ko'rinadiki, bu tip afsonalar syujetida bosh qahramonga qarama-qarshi harakatlanuvchi mifologik personajlarning epik qahramonga maftun bo'lish motivi, barcha shomon afsonalariga xos adabiy hodisadir. Barcha shomon afsonalari uchun mushtarak bo'lgan motiv mifologik obraz tomonidan epik qahramonga homiylik motivi, ya'ni epik homiy tomonidan doira, qamchi, kitob kabi predmetlarning in'om etilishi oqibatida bosh qahramon

² Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент. 1964. 93-бет.

³ Бу ерда "Гўрўғли" достони қаҳрамони Юнус парига ишора бўлган.

shomonlik kasbini qōlga kiritadi. Epik qahramonning parilar tomonidan saylanishi va himoyalaniishi aynan shomon afsonalariga xos xususiyatlardan biridir. Bundan tashqari, afsonada epik qahramonning ajdodlari mulla, darvoza eshon, qushnoch, baxshi bōlganligi va ulardan nabirasiga kitob (ba'zan qamchi, doira)ning meros qolishi motivi nafaqat ōzbek shomonlari, balki ket shomonlik e'tiqodida mavjudligi I.A.Alekseyenko tomonidan qayd etilgan edi.

I.A.Alekseyenkoning yozishicha, ket shomonlaridan meros qolgan shomon anjomlari faqat shomonning qondotshi bōlgan erkak kishiga tegishli bōlar ekan. Juvonlar, ōrta yosh ayollar shomon anjomlarini hatto yaqindan kōrishi ta'qiqlangan⁴. Taniqli elshunos V.N.Basilovning ta'kidlashicha, Zarafshon vohasi ōzbek va tojiklari orasida shomonlik kasbini ayollar, qozoq, qirg'iz, uyg'ur va turkmanlarda bu kasb erkak kishi tomonidan bajarilgan⁵. Ōzbeklarda shomonlik kasbi qadimda erkaklar keyinchalik ayollar tomonidan qabul qilingan. Shomonning anjomlariga, ōzbeklarda erkaklarning tegmasligi bilan bog'liq tabu mavjud. Yuqorida Shamsiya bibi Ashurovadan yozib olingan afsonada ham kitob bilan bog'liq ta'bu haqida ma'lumot keltiriladi. Buni qahramonning aqldan ozish motivida kōrish mumkin. Ayni shu kabi meros qolgan shomon anjomlarini keyingi avlod tomonidan qabul qilmaslik, ishlatmaslik natijasida ruhlarning dahl qilishi va shomonning shomonlik dardiga yōliqishi motivi barcha shomon afsonalari uchun mushtarak hodisadir.

Aqldan ozish, g'aroyib merosni qōlga kiritish, qōl olish motivlari ifodalangan afsonalarni etiologik xarakter kasb etishini hisobga olsak, ularni shomon yetiologik afsonalari deb atashimiz va shu nom ostida guruhlashtirib ōrganishimiz maqsadga muvofiqdir.

V.N.Basilov tomonidan e'lon qilingan etnografik ma'lumotda Surxondaryo viloyatining Shurob Angor tumanida istiqomat qilgan Momoxol ismli qushnoch va uning qay tariqa shomonlik kasbini qōlga kiritganligi haqida hikoya qilinadi.

⁴ Алексеенко Е. А. Шаманская нарта у кетов // Материальная кулвтура и мифология. Сборник музея антропологик и этнографии. XXXVII. А.,Наука, 1981.С.169-173.

⁵ Басилов В.Н. Два варианта среднеазиатского шаманства // С. Э. г. 1990. №4. –С, 66-67

Momoxol qushnoch afsonasida ham bosh qahramoning bobosi Olim baxshi bashoratchi, dotstonchi baxshi bōlganligi, shu bilan birga el ustida baxshilik qilib bemorlarni davolaganligi, bobosi vafot etgach, uning qamchisi, doirasini hyech bir kishi olmasdan qōygani natijada ketma-ket Momoxol farzandlarining ōlishi, keyinchalik og'ir dardga chalinishi, tushiga qirq chiltonning kirishi va bobosining qamchisini olishi zarurligini tushuntirgani va nihoyat qōl olgach, ya'ni qushnoch bōlgach, sog'ayib ketganligi ⁶ kabi motivlarning ustivorligi ham etilogik xarakterga ega ekanligini kōrsatadi. Shomonning avlodlari tomonidan meros qolgan shomonlik buyumlarini qabul qilishi ōzbek shomonlarida *qōl olish marosimi* Sibir turklarida *sabl marosimi* sanaladi. Sabl asli turkiy sōz bōlib ordona qolgan, egasi ōlgan buyum ma'nosida qōllaniladi. Mazkur sōzning ayni shu semantik ma'nosi hozirgi ōzbek tilida ham saqlangan.

Keyingi davrda amalga oshirilgan tadqiqotlarda kasb-hunarga doir afsonalar ham maxsus ōrganildi. Jumladan, M. Rahmonovanning ilmiy tadqiqot ishlarida kasb-hunar pirlari bilan bog'liq afsonalar ōrganilgan. Biroq tadqiqodchi tarixiy afsonalar tarkibida kasb-hunar, ularning pirlari bilan bog'liq afsonalarni alohida guruxlashtirgan. M.Rahmonova tomonidan tadqiq etilgan afsonalar tarkibida shomonlik kasbi bilan bog'liq aytimlar mavjud bōlmasa-da, mavzu va xarakter nutqi nazaridan shomon afsonalariga shaklan yaqin turishini bu janrlardagi afsonalarning obrazlar tizimida mifologik personajlarning ishtiroki, an'anaviy motivlarning tarixiy asoslari qadimiy shomon mifologiyasi bilan aloqadorligi qayd etib ōtilgan⁷. Demakki, shomon afsonalarining yaratilish vaqti an'anaviy afsonalardan ancha oldingi paytni tashkil etadi.

Xullas, ōzbek xalq shomon afsonalarning ōziga xos xususiyatlari qōyidagilarda kōrinadi:

-Afsona ijrochisi va bosh qaxramonning bir kishi ekanligida, ya'ni afsona syujetida tasvirlangan voqyelik aytuvchining boshidan ōtgan sarguzasht sifatida

⁶ Башилов В.Н. Души шаманки Момахол // Этнографическая история и традиционная культура Народов Средней Азии и Казахстана. Нукус 1989.-С. 138-148.

⁷ Рахмонова М. Ўзбек халқ тарихий афсоналарнинг ўзига хос хусусиятлари, генезиси ва таснифи. Номз. дисс. автореф. Тошкент, 2004.16-17-бетлар.

bayon qilinadi. Bunda aytuvchi afsonaning ham bosh qahramoni ham ijrochisi vazifasini o'taydi;

-Shomon afsonalari syujetida tasvirlangan voqyea-hodisalar bosh qahramonning u yoki bu shomonlik kasbini olish tarixini yoritishga qaratilgan bo'lib, etiologik xarakter kasb etadi. Bunday afsonalar syujetida tasvirlangan badiiy voqyelik aytuvchining muayyan kasbni egallashidan oldin og'ir dardga yo'liqishi va ilohiy buyumlarning meros qolishi va tush motivlari bilan izohlanadi.

-Afsonada ishtirok etadigan mifologik personajlar bosh qahramonga avval zarar etkazadi keyinchalik (kasb retualidan so'ng) homiylik qiladi.

-Afsona qahramonini kasb egallashining sababi ajdodlar kul'ti bilan bog'liq holda izohlanadi. Bu shomonning ajdodlaridan biri mashhur shomon bo'lganligi, u kishiga ko'pincha Xizr payg'ambarning dohil bo'lganligi, shomonlik kasbini qo'lga kiritish bilan bog'liq qisqirgan epizodlarning syujet voqyealari rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etishida ko'ramiz.

-Afsonada tasvirlangan voqyelik tinglovchi tomonidan haqiqat sifatida talqin qilinadi. Bu tipdagi afsonalarda tasvirlangan voqyealarga ilohiy tus berilishi, bosh qahramonning og'ir dardga yo'liqib mavhum ilohlar tomonidan kuch olib sog'ayishi motivlari retrospektivlikni ta'minlaydi.

-Afsona qahramoni bilan bir qatorda homiy ruh sifatida talqin etiladigan Chiltonlar, parilar, arvohlar kabi mifologik personajlarning syujet tizimida bosh qahramon bilan parallel ravishda faol ishtirok etishi faqat shomon afsonalariga xos belgidir.

Shomon marosimlar folklorining asosiy janrlaridan yana biri shomon chorlovlaridir.

Shomon chorlovlari. Ma'lumki, turkiy qavmlar orasida eng qadimiy va hamisha yashab kelayotgan e'tiqod shomonlik e'tiqodidir. Shomonlar turli davrlarda turli xil ko'rinishda faoliyat yuritganlar. Eng qadimgi shomonlar turkiy qavmlar orasida erkak kishilar bo'lganligi, kishilik jamiyatning keyingi bosqichlarida shomonlik kasbini ayollar egallaganligi etnografik adabiyotlardan

ma'lum.⁸ Hozirgi paytda turkiy qavmlar orasida shomonlik kasbi aksariyat hollarda ayollar tomonidan bajariladi. Bu kasb egalari xalq orasida *baxshi*, *qushnoch*, *qora qushnoch*, *alaschi*, *kõchiriqchi* nomlari bilan ataladi.

Ўzbek qushnochlari tomonidan amalga oshiriladigan marosimlarning verbal qismida shomon chorlovlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki marosimning asosiy magik jihatlarini chorlov vositasida, undan keyingi jarayonda amalga oshiriladi. Shomon chorlovlarida bemorning tanasiga singib olgan yozuv ruhlarni quvish uchun homiy ruh sifatida tasavvur qilinadigan pirlarni chaqirish motivi ustivorlik qiladi. Fol'klorshunos Ye.S.Novikovning fikricha, "Ruhlarini chorlash shomon afsungarlik marosimining asosiy qismini tashkil etadi. Marosim aytimlarini kuzatishlari natijasiga kõra, matnda hamisha uchrashi kuzatilgan aytim tarkibi sifatida ruhlarni chorlash hodisasi ularning mustaqil janr ekanligini tasdiqlab turadi"⁹. Sibir shomonlari materiallari asosida chiqarilgan mazkur xulosa bevosita õzbek shomon chorlovlariga ham ta'lluqlidir. Yelshunos V.N. Basilovning qayd yetishicha, õzbek qozoq uyg'ur shomonlari ruhlarni chorlash aytimlarini childirma (doira) jõrligida qoraqalpoq shomonlari esa, qõbiz jõrligida ijro etishadi va homiy ruhlar madadi bilan bemor tanasidagi yovuz ruhlarni haydash maqsadida chorlov ijro qilinadi.¹⁰ Folklorshunos Ye.S.Novikov esa, "Sibir halqlari fol'klori va inonchlarida ovozning ramziy vazifalari" nomli maqolasida "shomon chorlovlari ijrochisi bir vaqtning õzida epik qahramon va muallif"¹¹ ekanligini tõg'ri qayd etadi.

Shomon chorlovlarning janr tabiati borasida Ye.S.Novikov tomonidan olg'a surilgan mulohazalar bizga mazkur janrdagi asarlarning õziga xos belgilari

⁸ Басилов В.Н. Исламированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД. Москва, 1991.

⁹ Новиков Е.С. Фольклор-обряд-верования: опыт структурно-семиотического изучения текстов устной культуры // Диссертация в форме научного доклада по совокупности опубликованных работ на соискание ученой степени доктора филологических наук. Москва, 1995-С. 11.

¹⁰ Басилов В.Н. Исламированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД. Москва, 1991. С.17.

¹¹ Новиков Е. С. Семиотические функции голоса в фольклоре и верованиях народов Сибири // Фольклор и мифология Востока в сравнительно-типологическом освещении. Москва, Наследие, 1999. – С. 217-235.

borasida atroflicha mulohaza yuritishimizga asos бўлади. Biroq, Sibir shomonlari bilan Oʻrta Osiyo hududida istiqomat qilayotgan shomonlar tomonidan ijro etilib kelayotgan chorlovlar garchi turli tillarda бўlsa-da, ularning ijro va hayotiy oʻrni mushtaraklik kasb etadi.

Taniqli fol'klorshunos olimi Muzayana Alaviya tomonidan 1957 yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanida istiqomat qiluvchi baxshi Ashiroy Rōziyevadan *Kōchiriq* marosimining aytimlari tōliq yozib olingan.¹² Mazkur materiallarning tahlili shuni kōrsatadiki, baxshi bir qoqim jarayonida bir yōla bir necha mustaqil janrlardagi aytimlarni ijro etgan. Masalan, marosimning boshlang'ich bosqichida Xudo, va aziz avliyolar yod etiladi. Marosim aytimlarning mana shu qismi *shomon yōqlovlaridir*. Marosimning yōqlov qismida aytuvchi - shomon bismillodan boshlab, xudoni, aziz avliyolarni, pirlarni, oʻtganlarning ruhlarini birma - bir yodga oladi:

Bismillo, bismillo,
Bismillo, bismillo,
Avval Xudo yod aylayman,
Duyom pirlar yod aylanman,
Aziz avliyolar yod aylanman,
Oʻtgan guzashtalar yod aylanman.

Yod aylash shomon e'tiqodiga kōra, ilohlarni qōzg'atish maqsadida ijro etilgan. She'riy shakldagi aytimlarning mana shu qismidan keyin shomon qattiq e'tiqod qiladigan taniqli avliyolarning nomlari tilga olinib, aytuvchining ularga sig'inganligi izhor etiladi:

Kōktosh ota avliyo,
Men sizlarga sig'indim,
Chiroqchi ota avliyo,
Men sizlarga sig'indim,

¹² Mazkur material ЎЗР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти қузуридаги Ҳоди Зариф номидаги фольклор архивида 9129 рақамли сақлов бирлиги остида сақланмоқда.

Kōktōnli ota avliyo,
Men sizlarga sig'indim.

Marosim aytimining sig'inish izhori ifodalangan mazkur qismi alohida **shomon qisidasi** sifatida ham baholanishi mumkin. Shomon yōqlovlari va shomon qasidaları Kōchiriq marosimi aytimlari tarkibiy qismi bōlsa-da, mazmun mohiyati bilan magik marosim fol'klorining alohida – alohida mustaqil janrlaridir.

Marosim jarayonida shomon qasidaları ijrosidan keyingi bosqichda shomon bemorning jismiga joylashib olgan yozuv ruhlarga qarshi ramziy urush e'lon qiladi. Yozuv ruhlar bilan bōladigan bu jangda shomonning g'alabasining ta'minlanishi, yozuv ruhlarni obektdan quvib chiqilishi shart. Buning uchun shomon homiylarini, ya'ni pirlari va parilarini yordamga chaqiradi. Shomonga yozuv ruhlar bilan bōladigan mana shu jangda madad beruvchi pir va homiy mifologik personajlarning chaqirilishini ifodalagan she'riy aytilar shomon chorlovlarini tashkil etadi.

Shomon chorlovlari matnida pirlarning sanalishi va ularning tashriflariga xitob motivining yetakchilik qilishi, shomon chorlovlarida ishtirok etuvchi personajlarning mifologik obrazlar: pirlar, lashkarlar, qirq chilton, parilar, devlar ekanligi, chorlov ijrosining maxsus professional tayyorganlikka ega shaxs bōlishi, chorlovlar faqat magit marosim jaroyonida ijro qilinishi kabi belgilari bu janrdagi asarlarning tabiatini belgilab beradi. Negaki, folklorning boshqa janrlarida bunday sof mifologik obrazlar ishtirokida voqyelikni bayon qilishga asoslangan janr uchramaydi. Hatto qadimiy asotirlarning ham tasvir uslubi shomon chorlovlaridan tubdan farq qiladi. Chorlovlarda mifologik obrazlar bilan bog'liq voqyelik murojaat tarzida, she'riy shaklda, muayyan ritmik birliklar asosida ifodalansa, asotirlarda epik talqin yetakchilik qiladi.

Shomon chorlovlarning ijro uslubiga kōra bu janrdagi asarlar maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, shomonlik kasbini qōlga kiritgan professional ijrochi tomonidan amalga oshiriladi. Asotirlar istalgan kishi tomonidan ijro etilishi mumkin. Asotirlar istalgan paytda musiqa jōrligisiz ijro etilsa, shomon chorlovlari doira (childirma) jōrligida baxshi –qushnochlar tomonidan kuylanadi.

Shomon chorlovlari borasida mulohaza yuritgan olimlar P.G.Bogatirov, Ye.S.Novikov, I.N.Gemuyev, B.I.Sarimsoqov, S.Mirzayevalar¹³ tadqiqotlarida chorlov janri borasida tōliq mulohazalar mavjud emas. Ye.S.Novikov shomon chorlovlarini bir butunlikda ōrganishni tavsiya etadi va chorlovlar tarkibidagi yōqlovlar, shomon qasidaları kabilarni ham chorlov sifatida talqin etadi. P.G.Bogatırov esa, shomon marosimlari tarkibidagi chorlovlarning magik xususiyatlarini e'tirof etmaydi, balki uni marosimning verbal qismi sifatida baholanishi, marosim esa qadimiy teatr sifatidagi san'at asari namoyishi ekanligini qayd etadi. I.N.Gemuyev chorlovlar haqida bergan ma'lumotida bu janrdagi asarlarning ōziga xos jihatlarini ochib berishga ye'tiborini qaratmaydi. Biroq shomon chorlovlarida ruhlarga murojaat motivining mavjudligini ta'kidlaydi. Ōzbek fol'klorshunosi B.I.Sarimsoqov sōzning magik qudratiga asoslanuvchi ōzbek marosim fol'klori janrlari tarkibida shomon chorlovlari ham mavjudligini e'tirof etadi, ammo faqat ōzbek xalq og'zaki ijodi materiallari asosida bu janrning ōziga xosligini ochib berishning imkoni yōq. Ularning janr tabiatini oydinlashtirish uchun qardotsh halqlar shomon chorlovlari bilan qiyosiy tahlillar ōtkazish, buning uchun mustaqil tadqiqot olib borish lozimligini tōg'ri qayd etadi¹⁴. Shuningdek, B.I.Sarimsoqov ōz tadqiqotida shomon chorlovlarini "shomon chaqiriqlari" deb ataydi.

Kuzatishlarimiz shuni kōrsatadiki, shomon chorlovlari boqim marosimi tarkibiy qismi bōlib, shomonning boshqa (yōqlov, qasida) janridagi aytimlari bilan teng huquqli, bir xil magik mohiyat kasb etuvchi sōz san'ati namunasidir. Magik marosimda shomon chorlovlari ijrosidan keyingi qismda shomon arzi holi bayon

¹³Богатыров П.Г. Вопросы теории народного искусства. Москва, 1971.-С. 393; Н овик Е.С. Фольклор –обрядверования: опыт структурно –семиотического изучения текстовуснов культуры// Диссертация в форме научного доклада по совокупности опубликованных работ на соискание ученой степени доктори филологических наук. Москва , 1995.-С.11; Гемуев И.Н.,Сагалаев А.М. Религия народа манси. Культовые места XIX–XX в. - Новосибирск, 1986. – С.68; Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. Тошкент, Фан, 1986. - Б.144; Мирзаева С. Ўзбек халқ афсун-дуоларининг тематик таснифи. Андижон, 1992.-С. 10-11.

¹⁴ Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклор // Ўзбек фольклори очерклари. Тошкент, Фан, 1987.

qilinadi. Bu *shomon termalaridir*. Bunda shomon boshidan o'tgan sitamlarni ruhlarga t'okib soladi. Shomonning kechinmalari tasvirida unga yozuv ruhlarning dohil b'olishi va ziyor yetkazganidan nolish motivi ustunlik qiladi.

K'ochiriq marosimi tarkibida ijro etiladigan folklor janrlarini magik mohiyati va o'rinlashuvi q'oyidagicha:

1. Shomon y'qlovi. 2. shomon qasidasi. 3. shomon chorlovlari. 4. shomon termasi. 5. shomon iltijosi. 6. shomon k'ochiriqlari.

K'ochiriq marosimi, shuningdek boqim marosimi tarkibida xuddi shu kabi s'oz magiyasi bilan bog'liq marosim fol'klori janrlaridan foydalaniladi. Mazkur marosim fol'klori janrlari o'z semantikasi va morfologiyasiga k'ora bir-biridan farq qiladi. Bu janrlarni qiyosiy-tipologik tahlil qilish lozim.

Shomon y'qlovlari. Shomon marosimlarini o'tkazishda marosimlarning birinchi bosqichi shomon y'qlovlarini ijrosi bilan boshlanadi. 2004 yil Navoiy viloyati Xatirchi tumani Mirzo Ulug'bek shirkat x'ojaligi Jaloyir qishlog'ida istiqomat qiluvchi 41 yoshli Nozibuvi baxshining ma'lumot berishicha, baxshi boqim, qaytarma, suq chiqarish, qoqim marosimlarini o'tkazishda avvalo ishni «avliyo terish»dan boshlar ekan. O'tkan ulug' avliyolarni yod olish, ularning ruhidan madad olish maqsadida shomonlar avliyolar va o'zlarining marhum qarindotshlari nomini tilga olib q'oshiq kuylaydi:

S'ozim boshi bismillo,
Ishim boshi bismillo,
Alham boshi bismillo,
«Qur'on» boshi bismillo,
Ruhiyatlar sultoni,
Men sizlarga sig'indim.
Chodir chimmat tutganlar,
Chor tomondan kelganlar,
Qirq bir chiroq berganlar,
Ruhiyatlar sultoni-yay,
Men sizlarga sig'indim.

Yetmish ikki pirlarim,
Men sizlarga sig'indim.
Besh vaqt nomoz o'qigan,

O'n ikki imonlarimga sig'indim.
Olti yuzi yetmishta avliyolarga sig'indim.
Yetmish ikki pirlardan sōng
Yigirma uch payg'ambarlarga sig'indim.
Ruhiyatlar sultoni,
Men sizlarga sig'indim.
Avliyolar sultoni,
Men sizlarga sig'idim.
Bahauddin bolajon,
Nurli ota, Hasan-Husan,
Qoraxoni, Qalqon ota,
Xōjaqul ota, Chilla ota,
Foyib ota, Gadoy Selkin ota,
Langar ota, Aftosh ota,
Imom Buxoriy ota,
Shohi Zinda ota,
Hazrati Dovud ota,
Qōyluq ota, Chōpon ota,
Zangi ota- avliyolar sultoni,
Men sizlarga sig'indim.
Hur qiz avliyo onalar,
Qirq qiz avliyo onalar,
Yetmish ikki parilar,
Har qaysisi har ishda
Yetti pari onalar,
Men sizlarga sig'indim.

Sariq pari onalar,
Yõlim sariq qilinglar,
Yuzim sariq qilinglar.

Qizil kõylak kiyib kelgan
Qonxõr ona,
Men sizlarga sig'indim.
Bir õngiri oldida,
Bir õngiri orqasida
Martu ona,
Men sizlarga sig'indim.
Ona bõlib kelganlar,
Chodir chimmat tutganlar,
Qirq bir chiroq berganlar
Qirq bir chiltonlarimga sig'indim.
Qambar onam, Ambar onam,
Men sizlarga sig'indim.
Yetti pushtimdan õtganlarima sig'indim.
Ustozim Gulchehraning pirlariga sig'indim,
Pirim Sharafiddinu,
Tog'u toshni yaratgan
Odam ota, Momo havoni yaratgan,
Ollohimga sig'indim.

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida istiqomat qilayotgan 38 yoshar qõshnoch Nigora opadan 2004 yilda Navoiy davlat pedagogika instituti Õzbek filologiyasi fakulteti talabasi Qahhorova Gavhar tomonidan yozib olingan materiallar orasida qõshnochning qisqagina yõqlovi keltirilgan:

Qal'ai azizon, Xõjai Hasan,
Xõjai Husan, Xõjai Bõston,
Xõjai Jahon, Xõjai Falg'aladon

Avliyolar, yor bōlinglar.

Avliyolar yoki marhum bōlgan qarindotshlari, ajdodlari ruhini yod olish, ularning nomlarini zikr yetish, ulardan madad kutish shomon yōqlovlarining xarakterli jihatlaridan sanaladi. Sibir shomonlari amaliyotida mavjud shomon afsonalari poetikasini tadqiq etgan folklorshunos Ye.S.Novik ham shomonlarning marhum qarindotshlari ruhiga murojaat qilishlarini qayd etadi.¹⁵ Novik tomonidan e’lon qilingan materiallar orasida shomonlarning ōzoq ōtmishda yashab ōtgan pirlarining rōhlaridan madad olishi ham ta’kidlangan.

Shomon yōqlovlari bemorlarni ins-jinslar xurujidan xalos etish, suq chiqarish, qonlash, qoqish, boqim, alas va qaytarma marosimlarida marosimning asosiy olib boruvchisi-shomon (qushnoch, parixon, qora qōshnoch, baxshi) tomonidan ijro qilinadi. Shomon yōqlovlari shomon chorlovlaridan, shomon qasidalaridan farq qiluvchi mustaqil folklor janridir. Shomon chorlovlarida shomonning homiy ruhlarni chaqirishi yetakchilik qilsa, shomon qasidalarida ruhlarning qudrati, sifatleri madh etiladi, Shomon yōqlovlarida esa, sig’inish izhori yetakchilik qiladi. Shomon yōqlovlarining boshlang’ich qismi bismillodan boshlanish hollarini ham uchratamiz. Yōqlovlar avliyolarning nomlarini tilga olishdan oldin shomonning islomiy «bismillo» aqidasiq amal qilishi albatta, bu hududda uzoq muddatdan buyon hukm surib kelayotgan islom dini ta’siridir. Shomon marosimlari va aytimlari tarkibida islom dini ta’sirida u yoki bu yelementlarning tushib qolishi islomiy atributlarning ōrinlashuvi dog’istonlik shomonlar repertuarida ham uchrashi A.O.Bulatov tadqiqotlarida qayd qilingan edi.¹⁶ Islom e’tiqodida marhumlarning ruhini bezovta qilish mumkin emas. Shomonlikda esa, marhumlarning ruhi shomonning madadkori, homiysi sifatida talqin qilinadi.¹⁷

¹⁵ Новик Е.С. Поэтика шаманских легенд // Обряд и фольклор в Сибирском шаманизме. Москва 1984.С.239.

¹⁶ Булатов А. О. Релекты Шаманства у народов Дагестана // СЭ, 1991. С.124.

¹⁷ Рапопорт Ю.А. Релегия Древного Хорезма // Этнографические обозрение. 1996, № 6; Кнозоров Ю.В. Шаманский зикр в подмелъе Мазлумхан-сулу // Этнографические обозрение. 1994, №6; Басилов В.Н. Символика суфизма и народные верования (дополнение к статье И.И.Меликовой) // Этнографические обозрение. 1994, №6; Гусейнов ММ. Поклонение «высохщейголове» в Аварии // Этнографические обозрение. 1995, №3.

Xususan, Islom olamining ulug' allomalari nomining shomon yōqlovlari matnida uchrashi, inson ruhining barhayotligi borasidagi animistik tasavvurlar mahsulidir.

Shomon yōqlovlarida nomlari zikr etiladigan avliyolarning barchasi ham tarixiy shaxslar bōlavermaydi. Masalan, Nozibuvi baxshining ma'lumotida qayd etilgan Shohi Zinda ota, Langar ota, Afshot ota kabilar afsonaviy obrazlardir. Qiziltepalik Nigora qushnochning yōqlovida qayd etilgan «Qal'ai azizon»- ōz mazmuni bilan azizlar, ulug'lar qal'asi ma'nosini ifodalab turibdi. Ammo shomonning yōqlovda bu qal'ani tilga olishi ham bejiz emas. Chunki, qal'ai azizonda kōplab azizlarning ruhlari mavjud degan mifologik tasavvur mavjud. Shomon ōz maqsadiga erishishda ana ōsha qal'ada mavjud marhumlar ruhidan ham homiy sifatida foydalanadi. Bundan kōrinadiki, shomon yōqlovlarida magik mohiyat kasb etuvchi qabr, tarixiy obidalar, ilohiylashgan shaxslar bilan parallel ravishda zikr etiladi.

Shomon yōqlovlarining obrazlar tizimida tarixan payg'ambar sanalgan Dovud alahissalom- Dovud ota, onalar piri -Ambar ona, buyuk muhaddis olim Imom al-Buxoriy- Imom Buxoriy ota, xalq tasavvurlariga kōra, kishilarga yovuzlik keltiruvchi ruh sifatida talqin qilinadigan demonologik personaj Mortu-Mortu ona tilga olinib, shomon ularga sig'inishi, itoat qilishi ta'kidlanadi. Teleut shomonlik e'tiqodining taniqli tadqiqotchilaridan biri N.P.Дыренкова tomonidan e'lon qilingan shomon marosimlari matnida ilohiy onalarga sig'inish motivi suv onasi Sulayxan, ōttiz boshli olov ona, xalq onasi -Yenkey-xan (teleutlarda Yenkey-xan yerning kindigi yoki yerning yorig'ida istiqomat qiladigan ilohiy mifologik ayol), Kan ada- Xon ota, Yerlik ota, uch tishli Burul ota¹⁸ kabilarga sig'inish teleut shomonlari repertuarida ham uchraydi. Shomon yōqlovlarida muqaddas ona va otalar obrazining uchrashi shomonlik e'tiqodini saqlab qolgan barcha turkiy xalqlar uchun mushtarak hodisadir. Ōzbek mifologiyasida yovuz kuch va yezgu kuchlar sifatida talqin qilinuvchi personajlarning shomon yōqlovlarida ōrinlashuvi qadimgi olamning yaratilishi bilan bog'liq dualistik tasavvurlar mahsuli sifatida baholanishi maqsadga muvofiqdir.

¹⁸ Дыренкова Н.П. Материалы по шаманству у тулеутов // Сборник музея антропологии и этнографии. Т.Х. Москва, 1949. С. 136-138.

Shomon yōqlovlarida zikr etiladigan asosiy obrazlar tarkibida qirq bir chilton, qirq qiz, yetti yoki yetmish ikki parilarning tilga olinishi bu janrdagi asarlarning oʻziga xos magik mohiyatini belgilab beradi. Asosiysi, tilga olinadigan personajlarning poetik xossalarida ularning gʻayb olami vakili ekanligini yeslatib turuvchi badiiy tashbehlar (*bir ungiri oldida, bir ungiri orqasida Mortu ona yoki qizil kōylak kiyib kelgan qonxōr ona , qirq bir chiroq berganlar, ona bōlib kelganlar, chodir-chimmat tutganlar* kabi), shuningdek hammaga maʼlum bōlgan marhumlarning nomlari keltirish kōzga tashlanadi.

Xalq qarashlariga kōra, Mortu bir yemchagi oldida, bir emchagi orqasiga joylashgan, odam zotiga faqat yomonlik keltiruvchi demonologik obraz. Qushnoch Mortuning oʻzbek mifologiyasidagi tashqi belgilarini qayd etish bilan birga uni oʻzining homiysi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, qushnochga gʻoyibdan chiroq beruvchi *chiltonlar* yoki *ona bōlib* gʻayb olamidan *kelganlar* tinglovchi kōz oʻngida ilohiy tasavvurlarni hosil qilish uchun muhim poetik vazifani ado etadi. Mantdagi *qonxōr ona* esa yovuz ruhlarga ishoradir. Ruhlarining yōqlov matnida *chodir-chimmat tutganlar* sifatida tasvirlanishi ham faqat shomon tasavvurlariga xos tasvir usulidir. Shomonlik tasavvurlariga qaraganda, shomonga chodir tutishni, chodir ichida chilla oʻtirishni faqat homiy ruhlarigina buyuradi. Oʻzbek shomonlari amaliyotida uchrovchi chodir tutib chilla oʻtirish anʼanasi tuvalik shomonlar amaliyotida ham uchrashi M.B.Kenin-Lopsan tomonidan qayd etilgan edi.¹⁹

Xullas, shomon yōqlovlarining oʻziga xosliklari qōyidagilarda kōrinadi:

1. Avliyolar va marhum qarindotshlarining nomlarini zikr etilishi va ularning yodga olinishi motivining yetakchilik qilishida;
2. Shomon marosimlarining boshlangʻich qismida ijro etilishida;
3. Matnda ruhlar va arvohlarga sigʻinish motivining ustivorligida;
4. Yōqlov matnida gʻayb olami vakillari: parilar, qirq bir chilton, qirq qiz, mortu, ajina kabi mifologik personajlardan madad kutish, ularni shomonning mifologik homiysi sifatidagi talqin etilishining yetakchilik qilishi;

¹⁹ М.Б.Кенин-Лопсан. Шаманские ритуалы. М., Наука, 1987.(Материал Интернет тизимининг Кенинг-Лопсан сайтидан олинди).

5. Asosiysi shomon yōqlovlari shomonlar tomonidan shomon marosimlari (momooshi, surpa yoydi, kōchiriq, qaytarma kabi) jarayonida ijro etiladi.

Shomon termalari. “Surpa yoydi”, “Kōchiriq” marosimlarida marosim ishtirokchilari bir xonaga yig’ilishadilar. Shomon doira chalib, parilari, pirlari va mifologik homiylarini chaqirgach, ōz boshidan ōtganlarni she’riy shaklda qōshiq qilib kuylaydi. Shomon termalarida shomon ōzining asosan chiltonlar, parilar kabi ruhlar talabi bilan doira olganligini, shu kasb bilan shug’ullanmasa, unga hayot yōqligini tasvirlaydi:

Yon yoqamga qarasam,
Ini, og’am oq doira.
Kamrang’ang’a qarog’im,
Qarong’uda chirog’im,
Jonu dilim oq doira.
Yōlda yursam yōldotshim,
Uyda bōlsa hamrohim,
Onam bōlgan oq doira.
Sag’ir bolam boqishdi,
Chirog’imdi yoqishdi,
Azobimdi tortishdi,
Jonu dilim oq doira.
Yetmasimga eng bōldi,
Bōlmasimga bōy bōldi.
Otam bōlgan oq doira.
Ba’zi - ba’zi joylardan
Qōzi pōstak tōshatdi.
Ba’zi-ba’zi joylardan
Quyruq bovr oshatdi.
Suyganimni kiydirdi,
Suyab otga mindirdi.
Otam bōlgan oq doira.

Ba'zi-ba'zi joylardan
Kosa-kosa yog' ichdim,
Ba'zi-ba'zi joylardan
Sozim tōlib qon ichdim.
Keragani tol qildim,
Oq doirani jōl qildim,
Oydin kōlni sel oldi,
Aytuvli mardim jōg'oldi.
Maydan kōlim sel oldi,
Ba'zi-ba'zi vaqtlarda
Oqdayin oq urdim.
Uli yōlning tuprog'i
Shamol kelmay suvrildi.
Qirq chiltonga boy berdim,
Ōpka bilan yuragim,
Olov yoqmay qovrildi.
Oq doirani kōtarib,
Yurgiligim yōq meni,
Yelu xalqqa oralab,
Kelgiligim yōq meni.
Oq bug'doyning patiri,
Kelmas edim bu yerga
Qadrdonlar xotiri.
Bōsag'amni baland deb,
Chiqmas edim yerinib.
Oldimdagi oshimdi
Emas edim kerilib.
Uydan chiqmas noz edim,
Og'zimni ochmas bōz edim.
Og'izlarim ochirdi,

Sharm - hayo qochirdi.
Zangori bōldi kovushim,
Belgili bōldi tovushim.
Ichki bovim ayg'ichoq,
Tishki bovim tengachoq.
Bu lashkardi zarbidan
Baxshi bōldim kelinchak.

Shomonlar tasavvuricha, oq doira shomonning doimiy hamrohi, retuallarni mana shu doira jōrligida ōtkazadi. Doira homiy ruhlar buyrug'i bilan qurbonlik qilingan tovuq, qōy, echki qoni bilan qonlanadi. Doiraning qolanganligi uchun ham qonga ruhlar uning ovozini yeshitishi bilan hozir bōlishadilar deb e'tiqod qilinadi. Matnda shomon kelinchak paytida chiltonlar, parilar lashkari zarbidan doiraga hamroh bōlganligini, doira bemorlarni davolashda unga madadkorligi, uning rizqini topib olishida kōmakchiligi, ham otasi, ham onasi ōrnida xizmat qilayotganligi aytiladi. Shomonlik e'tiqodida bōlg'usi shomon ruhlar tomonidan tanlanadi.²⁰ Ilohiy kuchlar tomonidan tanlangan kishigina shomonlik kasbini egallab, shomon doirasini qōlga kiritadi. Bir qarashda doiraning qasnog'i toldan, doira "jōl" qilinganligi oddiy tasvir singari tuyuladi, ammo baxshi doira obrazini ramziy ma'noda qōllaganligini ham ilg'ab olish qiyin emas. Shomon termasida oq doiraning shomonni suyab otga mindirishi, suyganini kiydirishi kabi motivlar berilishining ōziyoq oq doiraning homiy ruhlarning ramziy obrazi ekanligi²¹ni kōrsatib turibdi.

Matnda shomonning yel ichida tanilishidan tortib, baxshi tomonidan "uli yōl" katta yōlning tuprog'ini sel olganda, maydon kōllarni sel olgan paytda qirq chiltonga boy berilishi bayon etiladi. Demak, baxshining nigohida butun borliq chiltonlar tomonidan mahv etilgan va baxshi shomonlikni qōlga kiritgach,

²⁰ Харитонова В.И. «Избранные духовы», «преемники колдунов», «посвященные учителями»: обретение магико-мистических свойств, знаний, навыков// Этнографическая обозрения. 1997, №5.-С.16.

²¹ Потапов Л.П. Шаманский бубен-уникальный памятник духовной культуры тюркских народов Алтая // Этнографическая обозрения. 1997, №4. –С.25

hammasi qaytarilgan. G'ayri tabiiy kuchlar oldida inson farzandlari ojizlik qiladi, degan tasavvur natijasida baxshi doirani (homiylarini) otasi – onasi va og'alaridan ustun qōyib, “otam, onam bōlgan oq doira” deb tariflaydi.

Shomon termasida nafaqat doiraning qōlga kiritilishi sabablari, balki shomonning boshidan o'tgan kechinmalari, azob – uqubatlari, shomonlik dardiga chalinganligi va faqat homiy ruhlar buyrug'ini bajarib, shomonlik kasbini egallaganligi-yu sog'ayib, obrō topib ketganligi ifodalanadi. Shomon termalari shomon marosimlarining boshlang'ich qismida tinglovchilarni ishontirish, ularda magik amallarga ishonch hissini uyg'otish maqsadida ijro qilinadi. Shomon termalarida homiy ruhlar lashkarining shomonni boshqarib turishi, shomonning rizq-nasibasini belgilashi, shomonni balo-yu ofatlardan asrashi, shomonni el orasida mavqyeini oshishi kabi motivlar turli poetik bōyoqlar bilan beriladi. Yuqoridagi terma matnida:

Oq bug'doyning patiri,
Kelmas edim bu yerga
Qadrdonlar xotiri.
Bōsag'amni baland deb,
Chiqmas edim yerinib.
Oldimdagi oshimdi

Emas edim kerilib.
Uydan chiqmas noz edim,
Og'zimni ochmas bōz edim.
Og'izlarim ochirdi,
Sharm - hayo qochirdi.
Zangori bōldi kovushim,
Belgili bōldi tovushim.

Yuqoridagi satrlarda baxshining oddiy shaxs sifatidagi hayotiy faoliyatidan el orasida taniqli baxshi darajasiga kōtarilishigacha bōlgan sarguzashtlari “belgili bōldi tovushim”, “zangori bōldi kavushim” kabi iboralar vositasida ifodalangan.

Shomon termalarida bayon qilinadigan barcha voqyealar qahramoni aytuvchining ōzi-shomon. Voqyealarning rivoji homiy ruhlar-lashkarlar, chiltonlar, momolar, bobolar (marhumlarning ruhlari, arvohlar) ning mifologik homiyligi vositasida amalga oshiriladi. Tahlil qilinayotgan shomon termasida ham aytuvchining kechinmalari aytuvchi atrofida ruhlar ta'sirida sodir bōlgan g'aroyib voqyealar sifatida talqin qilinadi.

Oq bug'doyning patiri,
Kelmas edim bu yerga
Qadrdonlar xotiri.

Keltirilgan mazkur jummalarda "oq bug'doyning patiri" guyoki tasodifan qōllanilgan iboraga ōxshaydi, biroq shomon termasida mazkur ibora qadimgi ajdodlarimizning hosildorlik kultlari bilan bog'liq mifologik qarashlari natijasida maydonga kelgan magik qasamning poetik talqini bōlsa, "qadrdonlar xotiri" esa, ajdodlar kulti²² bilan aloqador mifologik tasavvurlarning shomoniy e'tiqodga singishidan darak beruvchi badiiy talqindir.

Demak, shomon termalari shomon marosimlarida ijro etilish ōrniga, shomon marosimlari asos matnidagi ōrinlashuviga, ijro usuliga, tinglovchida magik amallarga va ilohiy voqyeilikka ishonch uyg'otish ruhining yetakchilik qilishi, qōllangan poetik vositalar semantikasida qadimgi kultlar bilan bog'liq mifologik tasavvurlarning mujassamligi muhim ahamiyatga ega.

²² Симаков Г.Н. Магия плородия в культе ловчихптиц в Средней Азии// Этнографическая обозрения. 1998, № 4. –С. 54.

II BOB. BEMORNI DAVOLASH BILAN BOG'LIQ MAROSIM JANRLARI.

Shomon marosimlari folklorining asosiy janrlarini ikki asosiy tipga ajratish mumkin. Bular: a) shomon marosimlari uchun mushtarak bōlgan voqeyiy magik janrlar: bezovta bemorni davolash jarayonida ijro etiladigan janrlar. Biz yuqorida kōrib o'tgan janrlar shomon marosimlari folklorining birinchi tipiga gulafshon, badik, kōch-kōch, afsun, avrash, yoyish, bog'lash singari bemorlarni darddan xalos etishda shomon tomonidan ijro etiladigan janrlar mansubdir.

Gulafshon - shomon marosimlari folklorining mustaqil janri bōlib, kishilarning badanlariga toshmalar toshganda yovuz ruhlar ta'siri deb talqin qilinadigan toshmani haydash, boshqa obektga kōchirish maqsadida maxsus tayyorgarlikdan o'tgan, shomonlik kasbi bilan shug'ullanuvchi, shomon tomonidan ijro etiladi. Gulafshon ijrosida doira jōrligi har doim ham kuzatilmaydi. Xozirgi paytda o'zbek shomonlari gulafshon janrini ijro etishda bemorga tōrt metr chit mato yopib, bemor ustidan qovurmoch bug'doy²³ donalarini sochib, tol xivich yoki shomon qamchisi bilan bemorni savalaydilar. Savalash gulafshon aytimi ritmiga xos bir maromda bajariladi. Bug'doy sochish har safar shomon tomonidan gulafshon matnining aytib tugatilgach bemor ustiga sochilib turadi. Marosim tugagach, bemor ustidan sochilgan bug'doy sipirilib olib tovuqqa beriladi. Gulafshon marosimi uch hafta chorshanba kunlari supra yoyilib, momolar va homiy ruhlar uchun chiroq yoqilib, surpaga un qōyilib, ōn bitta bōg'irsoqni surpa ustiga qōyib bemor boqiladi. Gulafshon sōz va harakat magiyasining uyg'unligida maydonga kelgan magik marosim folklori janridir. Taniqli folklorshunos B.I.Sarimsoqov ōzining «Marosim

²³ Қоврилган буғдой.

folklori» nomli tadqiqotida gulafshonning janr tabiati borasida dastlabki mulohazalarni bayon qilgan edi. Biz qōlimizdagi ōzbek shomonlari og'zidan yozib olingan gulafshon matnlari asosida professor B.I.Sarimsoqov mulohazalariga tayangan holda gulafshon janrining ōziga xosliklari borasidagi nazariy qarashlarni tōldirmoqchimiz.

Ōzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti qoshidagi Hodi Zarif nomidagi folklor arxivida saqlanayotgan, 1957 yilda Muzayana Alaviya tomonidan Chiroqchilik Qirmiz momodan yozib olingan gulafshon matnia ye'tibor qilaylik:

Gulafshonim yor-yor
Zarafshonim yor-yor,
Gulafshon suvda ōtdi.
Zarafshon yechki mindi.
Gulafshon chiqargan
Har murodg'a jetdi.
Qovurmochim qovurdim,
Qavrilib ketgin gulafshon.
Shipirgini shipirdim,
Shipirilib ketdim gulafshon.
Burda gōshing qovurdim,
Qovrilib ketgin gulafshon.
Arpalarni somoniday,
Sovrilib ketgin gulafshon.
A, qizg'aldoqday qizarib-a,
Qizarib chiqqin gulafshonim.
Boychechakday sarg'ayib,
Jōlg'a tushgin gulafshonim²⁴.

²⁴ Ходи Зариф номидаги фольклор архиви. Инв. №1315/II.

Xatirchilik shomon - Jang'il baxshi Ahmedovadan 2006 yilning aprel oyida biz tomonimizdan yozib olingan gulafshon matnida «Gulafshon otingni qildim, Gulafshon shartingni qildim», «Qonsiragan qossobga kōch», «Tazardaki²⁵ qamishga kōch» kabi gulafshonning kōchish manzili ham kōrsatilib, shomon tomonidan gulafshon boshqa manzilga yōllanadi. Bundan tashqari, Xatirchida istiqomat qilayotgan shomonlar: Jangil baxshi, Nozbuvi baxshi, Dilbar baxshilar repertuaridagi gulafshon janriga mansub matnlar tahlili shuni kōrsatadiki, gulafshon baxshi talqinida jonli mavjudot, yovuz ruh sifatida tasavvur qilinadi. Shomonning gulafshonga qarata aytgan gulafshon qōshig'i ijrosidan sōng gulafshon boshqa joyga kōchadi deb tushuniladi. Aksariyat ōzbek shomonlari gulafshon qōshiqlari matnida «kōchmasang senga la'nat, kōchirmasam menga la'nat», «Kōch badbaxt ōynab kōch» kabi xitoblar yetakchilik qiladi. Xullas, gulafshon shomon marosimlari folklorining mustaqil janri bōlib, badaniga toshma toshganda, yara chiqqan bemorlarni davolash jarayonida shomon tomonidan qōshiq tarzida hirgoyi qilib ijro etiladigan, she'riy shakldagi magik aytimdir. Ōzbek shomonlari gulafshon aytimi aytilib bemor savalangach, shifo topadi deb e'tiqod qilishadi. Shomonning bemor tanasiga qamchi urishi barcha turkiy qavmlar shomonlari amaliyotida uchraydi.²⁶

Kōch-kōchlar. Ōzbek shomon marosimlari folklorida shomonlarning bemorlarni davolash jarayonida ijro etiladigan magik aytimlaridan biri kōch-kōchlar bōlib, bu janrdagi aytimlar aqldan ozgan, kechasi bosliqib chiqadigan va boshqa turli shomon kasalliklarini davolashda ijro etiladi. Kōch-kōchlarda shomonning xitoblari Mortu, Simyon (pari), arvoh kabi demonologik personajlarga qaratiladi. Bu janrdagi aytimlarda asosan, yovuz ruhlarni boshqa manzilga boshlash, bemor tanasini tark etishga majburlash motivlari yetakchilik qiladi. Kōch-kōchlarning ōziga xos belgilaridan yana biri shundaki, bunday aytimlar doira

²⁵ Тазар- хатирчи шевасида сизор сув учун махсус қазилган дринаж, катта ариқ.

²⁶ Басилов В.Н. Исломированное шаманство народов Средней Азии и Казахстана. АДД. Масква, 1991. -С.17; Новиков Е. С. Семиотические функции голоса в фольклоре и верованиях народов Сибири // Фольклор и мифология Востока в сравнительно – типологическом освещении. Москва, Наследие, 1999. –С. 217-235.

jõrligida, qõshiq tarzida hirgoyi qilinib, kõchiriq marosimlaridagina ijro etiladi. Kuzatishlarimiz shuni kõrsatadiki, *kõch-kõch* xitobi asosan yovuz ruhlarni haydashga qaratilganligi uchun bõlsa kerak shomonlarning gulafshon matnida ham magik qaytariqlar sifatida uchraydi. Biroq kõchiriq marosimida shomon og'ir dardga chalingan bemorning tanasiga õrnashib olgan yovuz ruhlarni haydaydi. *Kõch-kõch* qaytarig'i asli kõchiriq marosimi matnlariga xos bõlib, keyinchalik gulafshon matnida sindirilgan bõlishi ehtimoldan holi emas. Chunki, shomonlik e'tiqodida yovuz ruhlar ta'siridagi dardlarning ibtidotsi ruhiy kasallikdir. Teri kasalligi bizningcha, ruhiy xastalikka nisbatan ancha keyin aniqlangan. Negaki, shomon dastlab ruhi xastalanadi, keyin yovuz ruhlarni maxsus afsunlar yordamida bartaraf etgandan sõnggina õzi ham magik tabobat bilan shug'ullana boshlaydi. Shomoniylik e'tiqodining yoyilishi natijasida shomoniy magik aytimlar har qanday dardni davolashi mumkin degan tasavvur kelib chiqqan. Ayni shunday tasavvuralardan biri teri kasalligini sõz sehri orqali davolashga ishonishdir. Bu ishonch gulafshon janrining maydonga kelishiga sabab bõlgan. Kõch-kõchlar mana shu jihatdan gulafshon janridan ancha ilgari paydo bõlgan magik aytimlardir.

Qanqillagan qarg'aga,
Sõlqillagan sõnaga,
Hayda badbaxt õynay kõch.
Kuchli desang tuyaga,
Sutli desang biyaga
Hayda badbaxt õynay kõch.
Ochilmagan buqchaga,
Jirtilmagan parchaga,
Qõy boshlagan sarkaga,
Boyning qizi yerkaga
Hayda badbaxt õynay kõch.

Yuqoridagi matndan kõrinib turibdiki, kõch-kõchlarda alletirasiya san'ati yetakchilik qiladi. Bundan tashqari bu janrdagi aytimlarning badiiyatida «narsa»-yovuz ruh yõllanadigan yangi manzil: yomon xulqli kishilar, keksa kishilar, eri

olib tul qolgan ayollar, sōna-kana, qarg'a, qabr, suv kabilardan iborat bōladi. Xalq qarashlarida yovuz ruhlar kishilarning nopokligidan, nopok joylardan, qabristondan, ōlik chiqqan xonadondan (ōlikning og'iri tushadi deb qaraladi), suv havzalaridan va kishi qadami kam tegadigan joylar, xarobalar, changalzorlardan tegadi. Baxshi kōchiriq qilib, kōch-kōch qōshig'i vositasida yovuz ruhlarni ōz manzillariga haydaydi. Yovuz ruhlar yōllanadigan manzillar parilar, martu, chilton, arvohlar yashaydigan makonlar bōlib, ijrochi ularni ōzlarining makoniga borishga undaydi. Kōch-kōchlar matnida ruhlarga murojaat qilish motivi shomon marosimlar folklorining boshqa janrlaridagi singari qayd etilsa-da, bunda bu murojaat yovuz ruhlarni qōrqitish, ularga pōpisa qilish kayfiyatining yetakchilik qilishi bilan ajralib turadi, shuningdek yovuz ruhlar baxshining raqibi sifatida talqin qilinadi. Kōch-kōchlar ijrosi tugagach, kōchiriq marosimi ham yakunlanadi. Baxshi doirasini tōntarib, «Bor Muhammad salovat, hammaga jovsin rahmat», deb olqish aytiladi va omin qilinadi. Aksariyat yel ustida yurgan baxshilar kōchirmadan keyin bemorni ertasi kuni qamchilab qoqadi.

Avrashlar. Shomon marosimlari folklorining asosiy janrlaridan yana biri avrashlar bōlib, bu janrdagi aytimlar kishilarni ilon, chayon, qoraqurt kabilar chaqqanda ijro qilinadi. Avrashlar semantikasi va ijro ōrniga kōra ikkiga bōlinadi.

1. Bog'lash. 2. Yozish.

Bog'lash-zaharli hashorat yoki mavjudotning zahrini kishi tanasida tarqalib ketishini oldini olish maqsadida ijro etiladi. Masalan, Jizzax viloyati Forish tumanida ilon chaqqanda avrash kasbi bilan shug'ullanuvchi Yusuf otadan folklorshunos B.Sarimsoqov 1980 yilda yozib olgan avrash matnining birinchi qismi bog'lash bōlib, unda avrovchi ilonning zahrini ōzi hali bemorni yoniga yaqinlashmasdanoq uzoq masofadan bog'lashi qayd etiladi:

«Bismillohir rahmonir rahim! Innahum yakuduka kayda vaakudu kayda, kamahlil kafirinua amlihum rivoyda!

Bastam, bastam mori bastam, ziboyi g'undayi gajdum bahaqqi Sulaymon payg'ambar dami bilan kuf chiq! Bad kardam, bad kardam. Bastam, bastam, bastam».

Bog'lash avrovchi kishi tomonidan bemor tanasidagi ilon yoki chayon zahrini sōz magisi vositasida ushlab turish uchun ijro qilinadi. Avrovchilik kasbi bilan hamma ham shug'ullanavermaydi. Shomonlik e'tiqodiga kōra, avrovchilik urug' suradigan ilohiy kasbdir. Avrovchi bemorning yoniga yetib kelgach, Yozish matnini ijro qiladi. Yozishda bemor tanasidagi zahar chiqarib yuborilishi kōzda tutiladi:

«Bismillohir rahmonir rohim!» deyilib, «Qur'on»dan «Fotiha» surasi bir dam ichida ōn marta ōqitladi. Keyin «Ayron, tayron, qirq boshliq, qirq kōzliq sariq ilon, baqaga tush, baqadan daryoga tush. Bahaqqi Sulaymon dami bilan kuf chiq!»- deyiladi. Keyin «Otaturaka bujur saroyi, bu bandi, bujur bandi, g'unda makr, chol-chalaka, mullaka, zivolaka alakoni bismillohi muhr uchun, kulli qur'on yuz uchun, bahaqqi Sulaymon dami bilan kuf chiq!» shundan keyin «Yosin» surasi ovoz chiqarib ōqiladi.²⁷ Avrashlarning boshqa bir kōrinishi qoraqurt chaqqanda ijro qilinadi. Ilon yoki chayon chaqqanda ijro etiladigan avrash bilan qoraqurt chaqqanda ijro etiladigan avrashning ōziga xos tafavutlari mavjud. Qoraqurt chaqqanda aytiladigan avrashga e'tibor qarataylik.

1. Bog'lash qismi:

«Bismillohir rahmonir rohim! Innahuma yakuduna kayda vaakudu kayda kamahlil kafiruna amhilihum rivoyda! Bastam, bastam, bori bastam, zaboyi g'undai gajdun bahaqqi Sulaymon dami bilan kuf chiq!!! Bad kardam, bad kardam, badkardam. Bastam, bastam, bastam!»

2. Yozish: Bunda avval «Fotiha» surasi dam yetguncha (7-8-10 marta) ōqiladi. Keyin: «Allang-allang olaqurt, bag'ri qora qoraqurt, qoraqurt degan senmisan, chodiringni buzayin, tirkovingni buzayin, bahaqqi Sulaymon dam bilan kuf chiq!!!» shundan sōng «Otaturaka bujur saroyi, bu bandi, bujur bandi, g'unda makr, chol-chalaka, mullaka, zivolaka, alakoni bismillohi muhr uchun, kulli qur'on yuz uchun, Ba haqqi Sulaymon dami bilan kuf chiq!!!» «Akkang, dakkang, zivolakang» (dam yetguncha takrorlanaveradi). Shundan sōng «Yosin» surasi bir nafasda ōqiladi.

²⁷ ЎзРФА Ҳ.Зариф номидаги фольклор архиви. Инв.№1780/1.

Yuqoridagi misollardan kōrinadiki, avrashlar matnida ōzbek tili lugʻat tarkibida mavjud bōlmagan yoki maʼnosi eskirgan, hozirda isteʼmolda bōlmagan, mazmuni tushunarsiz sōzlar ham uchraydi. Avrashlarning ōziga xos jihatlaridan biri ham matnda mazmuni mavhum sōzlarning tinglovchi tasavvurida magik mohiyat kasb yetish maqsadida qōllanilishidir. Avrashlar tuzilishi jihatidan bogʻlash va yozishdan tashkil topsa-da, bu tipdagi aytimlarning yozish qismi bemorning ahvoli, falokatning bartaraf bōlish darajasiga kōra, bir necha bosqichlardan iborat bōlishi mumkin.

Mundoq qaraganda avrashlar islom mifologiyasi matnlaridan iboratga, shomonlik eʼtiqodiga mansub bōlmaganday tuyuladi. Shu ōrinda bir narsani yeslatib ōtmogʻimizlozim. Markaziy Osiyoning arablar tomonidan mahv etilishi, Ōrta Osiyolik boshqa xalqlar singari ōzbeklarni ham islom eʼtiqodini qabul qilishi natijasida ōzbek shomonlari aytimlari tarkibida islom mifologiyasiga doir aytimlar, «Qurʻon» suralaridan foydalanish amaliyoti ham shakllangan. Biroq, yuqoridagi matnda «qoraqurt degan senmisan», «chodiringni buzayin, tirkovingni buzayin», «bahaqqi Sulaymon dam bilan kuf chiq!» kabi undalmalarning ōziyoq bunday aytimlar shomonlik eʼtiqodi natijasida yuzaga kelgan, shomon marosimlari folklori janrlaridan biri ekanligini kōrsatib turibdi.

Xullas, avrashlar magik marosimlar folklorining mustaqil janri bōlib, kishilarni ilon, chayon, qoraqurt kabi zaharli mavjudotlar chaqqanda ijro qilinadi. Avrashlarning folklor janri sifatidagi ōziga xos belgilari quyidagilarda kōrinadi:

1. Avrashlar faqat biror kishini ilon qora qurt, chayon chaqqanda ijro etiladi.
2. Avrash ijrochilari-avrovchilar maxsus tayyorgarlikdan ōtgan, ajdodlarida avrovchi bōlib bu kasb unga meros sifatida qolgan kishilar bōlib, ilohiy qudratli shomonlar sifatida talqin etiladi.
3. Avrashlar tuzilishi jihatidan ikki qismdan iborat bōladi. Avrashning birinchi qismi, ilon yoki chayon chaqqanda zaharni tarqab ketishini oldini olish maqsadida ijro qilinadigan bogʻlash qismi bōlib, avrovchining falokat haqidagi xabarni yeshitishi bilanoq ijro qilinadi. Avrashning ikkinchi yozish qismi esa,

avrovchi tamonidan bemorning tanasidagi zaharni chiqarib yuborish maqsadida, bemorni yonida ijro etiladi.

4. Avrashlar matnida mazmuni tushunarsiz sōzlar uchraydi. Bunday sōzlarning mazmuni mavhumligi tinglovchida magiyaga ishonchning oshishini ta'minlaydi.

5. Avrashlar ijro usulining ōziga xosligi bilan ajralib turadi. Folklorning hiech bir janri ijrosida aytuvchining bir nafasda bir necha sōz, ibora yoki butun matnini ijro qilishi kuzatilmaydi. Avrashlarda esa sōz, ibora yoki avrashning butun matni bir nafasda ijro etilishi talab etiladi.

6. Avrashlar manti badiiyatida ruhlarning mavjudligiga ishonish motivi yetakchilik qiladi.

XULOSA

Xullas, ōzbek shomon marosimlari folklori shamoniylk e'tikodiga ishongan, ruhlarning mavjudligi, kishilarga dahl qilishi kabi mifologik tasavvurlarga ishongan kishilar tomonidan ōtkaziladigan magik marosimlarning verbal qismidir. Ōzbek shomon marosimlarining asosiy janrlar tarkibini oydinlashtirishda shomon marosimlari jarayonida ijro etiladigan folklor janrlarini ikki asosiy qismga bōlib ōrganish lozim. Bular: **a) shomon marosimlari uchun mushtarak bōlgan voqyeiy magik janrlar:** *shomon yōqlovlari, shomon chorlovlari, shomon termalari*; **b) bevosita bemorni davolash jarayonida ijro etiladigan janrlar:** *gulafshon, kōch-kōch, afsun, afrash, badik*. Biz yuqorida shomon marosimlari folklorining har ikki tipiga mansub janrlarning tabiatini ochib brishga intildik.

Shomon marosimlari uchun mushtarak bōlgan voqyei janrlar: shomon afsonalari, shomon yōqlovlari, shomon chorlovlari, shomon termalari bōlib shomonlarning aksariyat marosimlarida ijro etiladi.

Bevosita bemorlarni davolashda ijro etiladigan janrlar: gulafshon, badik, kōch-kōch, afsun, avrashlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. - T.: Ōzbekiston, 1997. - 384 b.
2. Karimov I.A. Ōzbekistonning ōz istiqlol va taraqqiyot yōli. - T.: Ōzbekiston, 1992.
- 3.Karimov. I.A.Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-T.: Ōzbekiston, 1996.- 366b.
- 4.Karimov. I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yōq.- T.: Sharq, 1998.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kush. Ma'naviyat nashriyoti. –T.: 2008.
6. Karimov N. va boshqalar .xx asr o`zbek adbiyoti. O`qituvchi, -T.: 1999.
7. Tolstov S. P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. Toshkent. 1964. 93-bet.

8. ŌzRFA H.Zarif nomidagi folklor arxivi. Inv.№1780/1.

9. Sarimsoqov B. Ōzbek marosim folklor // Ōzbek folklori ocherklari. Toshkent, Fan, 1987.

10. Raxmonova M. Ōzbek halq tarixiy afsonalarning ōziga xos xususiyatlari, genezisi va tasnifi. Nomz. ,diss. avtoref.Toshkent, 2004.16-17-betlar.

Қаюмов О. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси) Номзодлик дисс. Авт. Реф. Тошкент, 1999.

Қаюмов О. Қояга битилган мактуб // Фольклоршунослик. Илмий мақолалар тўплами. 1- китоб. Навоий, 2004